




**IJMRSETM**

e-ISSN: 2395 - 7639



# INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

IN SCIENCE, ENGINEERING, TECHNOLOGY AND MANAGEMENT

Volume 9, Issue 12, December 2022

**ISSN**

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INDIA

**Impact Factor: 7.580**



+91 99405 72462



+9163819 07438



ijmrsetm@gmail.com



www.ijmrsetm.com

# MATEMATIKA DARSINI “MATEMATIKA MO`JIZALAR” YORDAMIDA O`QITISH.

Termiz agrotexnologiya vainnovatsion rivojlanish institute “Matematika tabiiy va gumanitarfanlar” kafedrasiKatta o`qituvchisi:

**Abdusamatova Hilola Odiljon qizi**

**Majidova Dilnoza Baxramovna.**

Termiz davlat universiteti;

## ANNOTATSIYA

Maqolada “fanlar podshosi” matematika fanining o`qitilishi jarayonida matematik mo`jizalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, samaradorlikni oshirishda yutuqlardan foydalanish imkoniyatlari ham tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** matematik ilm, didaktika, matematika o`qitish metodikasi, “master-klass”, tenglamalarni hisoblash.

Matematika o`qitish jarayoni o`qituvchi va o`quvchilarning o`zaro bog`liq bo`lgan tizimli faoliyatlari majmuasi bo`lib bunda, o`quvchilarni bilimli ongli matematik tushunchalarini puxta egallagan va amaliyotga tadbiq etish ko`nikmalariga ega qilib tarbiyalash nazarda tutilgan. Bu jarayonlar ta`lim maqsadida matematik mo`jizaviy o`yinlar asosida olib borilsauning asosiy komponentlari bo`lgan-ta`lim mazmuni,o`qitish, ta`lim berish, ta`lim vositalari bilan o`zaro bog`liq ravishda amalga oshirish o`quvchilarni matematika faniga qiziqishini yanada oshiradi darslarning yanada mazmunli va qiziqarli o`tishini ta`minlaydi.

Mo`jizalar azaldan kishiga qiziqish uyg`otgan, xoh tabiat hodisasi bo`lsin, xoh inson tafakkuri mahsuli bo`lsin, uni hayratga solgan. Lekin bir kishi shu sirini bilishga intiladi. Olovdan foydalanish, suvda suzish, elektr va atom shu tarzda inson tomonidan o`zgartirilgan.

Matematik mo`jizalar (fokuslar) matematik obyektlarning ko`pchillikka yaxshi ma`lum xususiyatlari, xossalari yoki ular orasidagi munosabat va qonuniyatlarning bir ko`rinishidir. Bu ko`rinish o`zining g`aroyibligi “sexrliliqi” va jozibasi bilan kishiga chuqur taassurot qoldiradi. O`z-o`zidan o`quvchida,,Mo`jizaning siri nimada ?”, “Uning tagida qanday matematik xossa yotibti” – degan savollar tug`ilishi tabiiy. Shu sababdan matematik mo`jizalarni shunchaki ko`ngil yozar ermak deb emas, matematik masala deb qarash joiz. Shu jihatdan matematik mo`jizalar o`quvchilarni matematikaga qiziqtiruvchi, ommabop, ko`rgazmali omil bo`lib xizmat qila oladi. Matematik mo`jizaning sirini mustaqil ochgan odam, bitta yaxshi matematik masalayechimining lazzatini oladi. Fikrimizning dalili sifatida matematik mo`jizalarga, xususan, sonli mo`jizalarga doir bir necha namunalar keltiramiz.

O`ylangan sonni toppish, o`ylangan son ustida bajarilgan amallar natijasini aytish, tez hisoblash va boshqalar sonli mo`jizalardir.

- A) O`ylangan sonni topish.** Tomoshabindan biror sonni dilda o`ylash va qaysi son ekanligini aytmasdan, bu son ustida muayyan amallar bajarish so`raladi. U hisob-kitoblar bajarib oxirida chiqqan natijani aytadi. Mo`jizani namoyish qiluvchi (mo`jizagar) shu natija bo`yicha qaysi son o`ylanganini aytib beradi. Bu xildagi mo`jizalarning turli tuman ko`rinishlari bor. Ulardan birini e`tiboringizga havola etamiz va yo`l-yo`lakay tahlil qilamiz.

1. **Bitta sonni topish.** Mo`jizagar so`raydigan amallar: biror son o`ylang uni 3 ga ko`paytiring. Hosil bo`lgan songa 16 ni qo`shing. Yig`indini 2 ga ko`paytiring. Ko`paytmadan 18 ni ayirib tashlang. Ayirmaga o`ylagan soningizni qo`shing. Yig`indini 7 ga bo`ling natijaga 11 ni qo`shing. Necha chiqdi? – 20. Siz o`ylagan son – 7. Umuman, qanday son chiqqan bo`lmasin, o`ylagan son darhol aytildi – Qanday qilib? mo`jizani9ng sirini ochamiz. Faraz qilaylik, siz o`ylagan son  $\chi$  bo`lsin. (u chindan ham noma`lum.) aytilgan amallarni  $\chi$  ustida ketma-ket bajarib ko`ramiz:

1	Biror son o`ylang	$\chi$
2	3 ga ko`paytiring	$3x$
3	16 ni qo`shing	$3x + 16$
4	2 ga ko`paytiring	$2(3x + 16) = 6x + 32$
5	18 ni ayiring	$6x + 32 - 18 = 6x + 14$
6	O`ylagan soningizni qo`shing	$6x + 14 + x = 7x + 14$
7	7 ga bo`ling	$(7x + 14): 7 = x + 2$
8	11 ni qo`shing	$x + 2 + 11 = x + 13$

Demak, natija doim o`ylagan sondan 13 ga ortiq chiqar ekan, holos. Shunung uchun, natija ma'lum bo`lgach, undan 13 ni ayirib, o`ylangan sonni aytib berish mumkin. Misol uchun so`ngi natija 20 deyilsa, o`ylangan son 7, natija 15 bo`lsa, o`ylangan son 2 va hokazo. Xulosa qiladigan bo`lsak, biz keltirgan matematik mo`jizaning siri aljabrnin

$$[(3x + 16) \times 2 - 18 + x] \times 7 + 11 = x + 13$$

Ayniyatidan iborat “kalit” bilan ochilar ekan.

**Mashq.** Quyida keltirilgan “kalit”lar yordamida o`rtoqlaringizga “mo`jiza ko`rsating”:

- a)  $\{(x + 12) \times 2 + x\}: 3 - 7\} \times 2 = 2x + 2$
- b)  $[(5x + 3) \times 2 + 12] \times 10 = 100x + 18$
- c)  $(x + 2) \times x + 1 = (x + 1)^2$
- d)  $[(3x - 5) \times x + x]: x + 5 = 3x + 1$

2. **O`ylangan ikkita sonni topish.** “Ikkita bir xonali sonni o`ylang. Birinchini 2 ga ko`paytiring va 3 ni qo`shing. Yig`indini 5 ga ko`paytiring ko`paytmaga ikkinchi sonni qo`shing. Yig`indidan 4 ni airing. Nima hosil bo`lganini aytsgiz, o`ylagan sonlaringizni topib beraman”. Yuqoridaq mo`jiza-ku ancha tushunarli – bitta natija bo`yicha bitta son topiladi. Bu yerda natija bitta, noma`lum son esa ikkita-ku! Faraz qilaylik, o`ylangan sonlar xva y bo`lsin. U holda  $(2x + 3) \times 5 + y - 4 = 10x + y + 11$  ifodaga egamiz. Undan qanday foydalilanadi? Shartga  $0 \leq x \leq 9, 0 \leq y \leq 9$ . Oxirgi natijadan 11 ayirilsa,  $10y + y$ —birinchi raqami x ikkinchi raqami y bo`lgan ikki xonali son qoladi. Masalan, oxirgi natija 36 chiqqan bo`lsa, undan 11 ni ayiramiz. 25 hosil bo`ladi. Demak, o`ylangan sonlardan birinchisi 2, ikkinchisi 5 ga teng ekan.

- Mashq.** A) o`ylangan 3 ta bir xonali sonlarni topishga imkon beradigan matematik mo`jiza “kalit”ini yozing  
 b) o`ylangan 2 ta ikki xonali sonlarni topishdan iborat matematik mo`jiza “kalit”ini yozing  
 v) tug`ilgan kun, oy va yilni topish uchun shunga o`xhash qoida ko`rsating.

Quyidagi matematik mo`jizalarning kalitini toping:

- 1- Mo`jiza. “Ikki xonali son o`ylang. Bu sonni 3 ga, 5 ga va 7 ga bo`lganda qoldiqlarni birin-ketin aytsgiz, qaysi sonni oylaganingizni topib beraman.”
- 2- Mo`jiza. “1 dan 31 gacha bo`lgan biror butun sonni o`ylang. Bu son quyida keltirilgan jadvalning qaysi ustunlarida borligini aytsgiz, uni aytib beraman”:

1	2	3	4	5
1	2	4	8	16
3	3	5	9	17
5	6	6	10	18
7	7	7	11	19
9	10	12	12	20
11	11	13	13	21
13	14	14	14	22
15	15	15	15	23
17	18	20	24	24
19	19	21	25	25
21	22	22	26	26
23	23	23	27	27
25	26	28	28	28
27	27	29	29	29
29	30	30	30	30
31	31	31	31	31
1	2	4	8	16

B) **Natijani topish.** Bu xildagi mo`jilarda ixtiyoriy o`ylangan son bajarilgan amallar natijasi aytib beriladi. Agar mo`jizaning “kalit”I tuyilsa, bus afar tenglikning o`ng tomonida dastlab o`langan sonning qanaqaligidan qat`iy nazar, o`zgarmas son turishini ko`ramiz.

Misol uchun quyidagi mo`jizani olib ko`raylik:

“Raqamlari har xil uch xonali son o`ylang. Bu sonning raqamlarini teskari tartibda yozib yangi son hosil qiling. Bu ikki sonning kattasidan kichigini aytинг. Ayirmada hosil bo`lgan sonning raqamlarini teskari tartibda yozib, yangi son hosil qiling va uni ayirmaga qo`shing”. Qaysi son o`ylanganidan qat`i nazar natija doim 1089 chiqadi!

Bu qoidani ham konkret misolda, ham umumiy holda birga taxlil qilamiz. Tayin uch xonali son 581 bo`lsin. Ixtiyoriy uch xonali a, b, c, raqamli son  $100a+10b+c$  ko`rinishida yoziladi. U holda bajarilgan amallarni quyidagicha yozishimiz mumkin:

1. 581

Mashq. Quyidagi keltirilgan “kalit”larga asoslangan matematik mo`jizalarini sinab ko`ring va yangilarini o`zingiz tuzing:

- a)  $[(x + 5) * 4 - 14 - x]: 3 - x + 21 = 23.$
- b)  $\sqrt{(x + 6)} \cdot x + 9 + 10 = 13$
- c)  $(1 - (1 - x^{-1})^{-1})^{-1} + x = 1, x > 1.$

Quyidagi matematik mo`jizalarning “kalit”ini toping:

1-mo`jiza. “Uch xonali son o`ylang. Bu sonning yoniga yana bir marta shu sonni yozib, olti xonali son hosil qiling. Bu sonni avval 7 ga, so`ng 11 ga va nihoyat, 13 ga bo`ling”. Hamma vaqt natija o`ylangan songa teng bo`ladi.

2-mo`jiza. Raqamlari har xil son o`ylang (u istalgancha kata son ham bo`lishi mumkin). Uning raqamlarining o`rnini istalgan tartibda almashtirib, yangi son hosil qiling. Bu ikki sonning kattasidan kichigini airing. Hosil bo`lgan sonni raqamlar yig`indisini toping. Yig`indiga teng sonni raqamlar yig`indisini toping va hokazo. Bu amalni to bir xonali son hosil bo`lguncha davom ettiring. Natijada siz har doim 9 hosil qilasiz. Masalan, 6897734 soni o`ylangan bo`lsin.

Yangi 7689743 sonini tuzamiz.  $7689743 - 6897734 = 792009$  ekanini topamiz. Uning raqamlari yig`indisi – 27, 27 niki esa 9 ga teng.

Shu o`rinda matematik mo`jizalar namoyish qilayotgan, uning iloji boricha ko`rgazmali chiqishiga harakat qilish kerak. Buning uchun esa mo`jizani tomoshabin bilan muloqot tarzida yoki har xil predmetlar ishlatgan holda maqsadga muvofiq. Masalaning bu qirrasini quyidagi misolda ochishga harakat qilamiz.

**c) Tez hisoblashlar.** Bu xildagi mo`jizalar yoki sonlar orasidagi ma`lum qonuniyatlarga, yoki haqiqatda xotirada tez hisoblay olish mahoratiga asoslangan bo`lishi mumkin. Tarixdan arifmetik amallarni yodda g`oyat katta tezlikda hisoblayoladigan tug`ma qobilaytli kishilar ma`lum. Lekin, ayrim hisoblashlarni matematik qonunlar asosida “yashin tezligida” bajarib, boshqalarni qoyil qoldirish mumkin.

Misollar keltiraylik. Bu misollarda biz mo`jizani tomoshabinga qay ko`rinishda havola qilish texnikasi ustida ham to`xtalamiz.

**1-mo`jiza.** Yig`indini tez “hisoblash”. Bu mo`jizani doskada ko`rsatgan maqlul. Doskada o`zingiz ixtiyoriy besh xonali son yozasiz. Tomoshabinlardan shu sonning tagiga xuddi shuncha xonali sonni yozishni iltimos qilasiz. Keyin o`zingiz uchinchi sonni yozasiz. (endi uni istalgancha emas, 2-sining har bir raqamini 9 dan ayirib, mos xonaga yozasiz). Masalan, oldingi son 35891 bo`lsa, uning tagiga 64108 sonini yozasiz, boshqacha qilib aytganda, har bir raqamni 9 gacha to`ldirasiz. Tomoshabinlardan yana biror sonni shu sonlar tagiga yozishni taklif qilasiz. Nihoyat, o`zingiz oxirgi sonni yozib, shu zahotiyon doskadan o`girilib, tomoshabinlarga qarab yig`indini aytasiz. Buning uchun sizga birinchi yozgan soningiz yetadi. Haqiqatdan tomoshabinlar qaysi sonni yozishgan bo`lmasin, siz bu sonlarni har safar 99999 son bilan to`ldirdingiz. Demak, yozilgan 5 ta son yig`indisini topish uchun birinchi songa  $99999 \times 2 = 199998$  ni qo`shish, ya`ni 2 ni ayirib, 200000 ni qo`shish kifoya (200000 ni qo`shish birinchi son oldiga 2 raqamini qo`yish bilan bir).

Misol:

1-son	41238	yoki	63271
2-son	35987		44505
3-son	64012		55494
4-son	59856		12345
5-son	40143		87654
	241236		263269

Bu matematik mo`jiza sirtdan qaraganda tez hisoblash mahoratini namoyish qiladigandek ko`rinsa-da, lekin o`zingiz guvoh bo`lganiningizdek sonlar umuman qo`shib o`tirilmaydi- yig`indi bir zumda maxsus qoidaga asosan yozilayapti.

**Mashq.** A) 5 xonali sonlar o`rniga boshqa “uzunlikdagi” sonlar olinsa, “mo`jiza” qanday o`zgaradi?

B) Mo`jizaning uchta, yetta, to`qqizta sonlar yig`indisini tez hisoblashga oid ko`rinishlarini ishlab chiqib, o`rtoqlaringizga namoyish qiling.

**2-mo`jiza.** Tezkor kub ildiz chiqarish. Tomoshabinlardan 1 dan 100 gacha bo`lgan biror sonni olib kubga ko`tarish va natijani aytish taklif qilinadi. Shundan so`ng, tezda kub ildiz, ya`ni tomoshabin qaysi sonni kubga ko`targanini aytib beriladi.

Bu mo`jizani namoyon qilishda biroz hisoblash mahorati kerak bo`ladi. Birinchidan 1dan 9 gacha bo`lgann sonlarning kublarini yodda tutish zarur.

$$1^3 = 1, \quad 2^3 = 8, \quad 3^3 = 27, \quad 4^3 = 64, \quad 5^3 = 125, \quad 6^3 = 216$$

$$7^3 = 343, \quad 8^3 = 512, \quad 9^3 = 729.$$

Ildizni topish uchun aytilgan sonning o`ngdan 3ta raqami guruhi ajratiladi. Bu guruhning oxirgi raqamiga qarab izlanayotgan sonning birliklar xonasidagi raqam topiladi. Chapdagagi guruh asosida ildizning o`nliklar xonasidagi raqam aniqlanadi. Masalan,  $571787$  sonini olaylik, uning oxirgi raqami  $7$ , demak, ildizlar birliklar xonasidagi raqam  $3$ , chapdagagi guruh  $571$  soni  $8^3 = 512$  va  $9^3 = 729$  sonlari orasida joylashgan. Demak, o`nliklar raqami  $8$  va izlanayotgan ildiz  $83$  ekan.

Mashqlar. 1. Bir xonali sonning beshinchi va yettinchi darajalaridan og`zaki shu darajali ildiz chiqarish qoidasini ko`rsating.

2. Talaba o`rtoqlariga shunday mo`jiza ko`rsatadi: “Gugurt qutisidagi cho`plarni sana. Bu sondagi raqamlar yig`indisiga teng cho`plarni qutidan olib menga ber”- deydi-da, qutini olib, shiqirlatib ko`rib, undagi cho`plarni aytib beradi. (masalan, dastlab  $49$  bo`lsa,  $49 - 4 - 9 = 36$  ta cho`p borligini aytib beradi.) talaba buni qanday aniqlaydi?

3. Raqamlari har xil 3 xonali son o`ylang. Uning raqamlarini teskari tartibda joylashtirib, yana bir uch xonali son hosil qiling-da, kattasidan kichigini airing. Agar ayirmaning birliklari nechaligini aytsangiz, men qolgan ikki raqamini aytib bera olaman. Qanday qilib?

4. Bir xonali son o`ylang. Qog`oz, qalam olib,  $10$ ni qo`shing.  $5$  ga ko`paytiring.  $3$  ni qo`shing.  $2$  ga ko`paytiring. O`rtadagi raqamni o`chiring.  $4$  ga bo`ling. Necha chiqqanini men ayta olaman. Agar men son o`ylab shu amallarni bajarsam, oxiridagi sonni ayta olasizmi?

5. Har xil raqamli ikki xonali son o`ylang. Uning raqamlarini teskari tartibda joylashtirib, yana bir ikki xonali son hosil qiling-da, kattasidan kichigini airing. Moboda  $9$  chiqmadi-mi? yo`q deysizmi? Unday bo`lsa, ayirmaning raqamlarini ham teskari tartibda joylashtiring va qo`shing.  $11$  ga bo`ling. Endi  $9$  chiqdi, to`g`rimi?


6. Bir qo`lingizda  $10$  tiyinlik, ikkinchi qo`lingizda  $15$  tiyinlik tanga yashiring. Chap qo`lingizdagagi tangani  $6$  ga ko`paytiring. O`ng qo`lingizdagagi tangani  $7$ ga ko`paytiring. Har ikki ko`paytmani qo`shing. Natijani aytинг-160. O`ng qo`lingizdagagi  $10$  tiyinlik, chap qo`lingizdagagi esa  $15$  tiyinlik tanga. Qanday qilib biror natijani so`ramasdantangalarni topish mumkin?

7.  $123456789$  sonini eng yaxshi ko`rgan raqamingizga ko`paytiring. Ko`paytmani  $9$  ga ko`paytiring. Shoshilmang birorta raqam yozishda yanglishmang. Yaxshi ko`rgan raqamingizni yozishni buncha yaxshi ko`rmasangiz!

Yuqoridagi o`yinlar orqali matematika darsi o`qitilsa darslar juda samarali o`tiladi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ahadova M. Beruniy va uning matematikaga oid ishlari “Fan” 1976
2. Afonina S. I. Matematika va go`zallik. T., O`qituvchi 1987.
3. Matematik terminlarning ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati T. “O`qituvchi” 1974
4. Mirzahmedov M. A va boshqalar “tenglama tensizliklarni yechish T. “O`qituvchi” 1989 yil
5. Nurmatov A. Qodirov I. “Matematikadan sinfdan tashqari va fakultativ mashg`ulotlar T. “O`qituvchi” 1980



# INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

IN SCIENCE, ENGINEERING, TECHNOLOGY AND MANAGEMENT



+91 99405 72462



+91 63819 07438



ijmrsetm@gmail.com